

AMUR TEMUR SARKARDALIK MAHORATI VA STRATEGIK TAFAKKURI AMUR TEMUR'S COMMANDERSHIP SKILL AND STRATEGIC THINKING

Ibragimov Abrorbek Maxammadkomilovich
podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi
Harbiy san'at kafedrası katta o'qituvchisi

Junaydullaev Oxunjon Qaxorjon o'g'li
mayor, O'R QK Akademiyasi HX va
DM fakulteti 2-bosqich tinglovchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur bobomizning harbiy harakatlar jarayonida jahon harbiy san'ati va taktikasiga qo'shgan hissasi o'rganish bilan birgalikda, sarkardalik mahoratini va strategik tafakkuri to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: harbiy san'ati, jang san'ati, strategiyasi, taktikasi, jangovar tartib, jangovar harakatlar.

Annotation:

In this article, the contribution of our grandfather Amir Temur to the world military art and tactics in the process of military operations is discussed, as well as the leadership skills and strategic thinking.

Keywords: military art, martial art, strategy, tactics, battle order, combat actions.

Amir Temurning sarkardalik mahoratini ilmiy o'rganish asosida erishilgan natijalardan harbiy ta'lim amaliyotida turli toifadagi komandirlar tayyorlashni, jangchi shaxsiga qo'yiladigan talablarni, sarkardalik qobiliyatini, tezkor qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish borasida tarixiy-ta'limiy manba sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temurning sarkardalik faoliyatiga qo'shinni butlash va boshqarish tajribasi jihatidan olib qaraydigan bo'lsak, uning bu yo'nalishdagi faoliyati Amir Temurga



qadar yashab o'tgan boshqa sarkardalardan harbiy-strategik boshqaruv nuqtai nazaridan quyidagicha farqlanadi:

birinchidan, Amir Temurning asosiy qo'shinlari vaqtinchalik yo'llangan askarlardan emas, balki muntazam faoliyat ko'rsatuvchi professional harbiylardan iborat bo'lgan;

ikkinchidan, qo'shinda ko'chma ko'priklar qurish bilan shug'ullanuvchi alohida tarkib (bugungi harbiy ish tilida pontonchilar bo'linmasi) tuzilgan. Ushbu tarkibga Amudaryo va Sirdaryoda kemachilik bilan shug'ullanuvchi aholi orasidan mutaxassislar tanlab olinib, kemalar va ko'priklar qurish ishlariga jalb etilgan;

uchinchidan, naftandozlar (grigoryan yoki yunon olovini otuvchilar), qamal qilish mashinalari va tosh otuvchi qurollar **bilan** ishlashni biladigan jangchilar, tik qiyaliklarga chiqa oladigan, tog'li yerlarda bo'ladigan janglarga ko'nikkan, tog' aholisidan tashkil topgan bo'linmalar hamda «Sonsiz» deb nomlangan maxsus qism faoliyat yuritgan;

to'rtinchidan, qo'shin tarkibida «Ekinchi» deb nomlangan maxsus bo'linma joriy qilinib, ular uzoq muddatli va olis o'lkalarga yurish paytida dehqonchilik **bilan** shug'ullagan, qo'shinni oziq-ovqat bilan ta'minlagan.[1]

Amir Temur qo'shinining jangovar tartibi o'z davri uchun yangicha bir ko'rinishga ega bo'lgan. Sharafuddin Ali Yazdiy quyidagicha yozadi: «Amir Temur urush boshlashdan avval oddiy otliq askarlar yoki yengil otliqlar kamon, sadoq (o'q yoylari bilan), qilich, arra, bigiz, igna, taroq, ar bolta, o'q uchun 10 ta poynak, qop, mesh (daryodan o'tish hamda suv olib borish uchun ishlatiladigan charmdan ishlangan qop) va 2 ta otga ega bo'lishlarini talab qilardi. Bundan tashqari, har 18 kishi kigizdan ishlangan o'tov olishlari shart edi».

Amir Temur qo'shinlarining tarkibiy tuzilmasi yetti qo'lga ajratilgan va qo'shinni boshqarishni belgilab bergan. Chor Rossiyasi general-leyteynanti Mixail Ivanin 1836-1845 yillarda yozgan «Mo'tul-tatarlar va O'rta Osiyo xalqlarining Chingizxon hamda Amir Temur davrlaridagi harbiy san'ati va istilolari haqida» nomli asarida yozishicha, Amir Temurdan oldingi davrlarda harbiy san'at tarixida qo'shinni bu tartib asosida tuzish amaliyoti mavjud bo'lmagan. Stratekgik jihatdan yangi tartib asosida qo'shinni tuzish, nafaqat qo'shin markazini, balki qanotlarni ham bir xilda kuchaytirgan.[2]

Harbiy nazariyotchilarning ta'kidlashicha, markaz ixtiyorida ilg'or, kanbul va zaxira



qismlar bo'lib, ular urush taqdirini hal qilgan. Bunday tartib qo'shin tuzilishiga sarkarda tomonidan kiritilgan o'ziga xos yana bir yangilik hisoblanib, jahon harbiy klassiklari strategiyasida o'z aksini topgani shubhasizdir.

Amir Temurning harbiy san'atini quyidagi metodologik tamoyillar asosida bayon etish tavsiya etiladiki, ular sarkarda merosini harbiy san'at tarixi predmeti va mavzulari bilan hamohang bo'lishini ta'minlaydi:

- tarixiylik tamoyili asosida bayon etish (sarkardaning yurishlari, qo'shin tuzishi va harbiy boshqaruvining tarixiy dalilllar va o'sha davrdagi muammolar bilan o'zaro bog'liqligi, rivojlanishi, siyosiy vaqt va makonni hisobga olgan holda tahlil qilish);
- ilmiylik tamoyili asosida bayon etish (Amir Temurning harbiy faoliyatini qismlarga, jumladan, harbiy boshqaruv, harbiy qurilish, oliy bosh qo'mondon, harbiy kengash raisi kabilarga ajratib, o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy natijalariga asoslanib tavsiflash);
- davlat va jamiyat hayotining o'zaro bog'liqligi tamoyili asosida bayon etish (sarkardaning yurishlarini harbiy-taktik va harbiy-strategik konseptlar asosida bayon etish uchun har bir yurishga majmuaviy yondashib, ichki va tashqi siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy stratifikatsiya, hokimiyat va jamiyatning iqtisodiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy sohalarini o'zaro aloqadorlikda mavjudligi, o'sha zamonning ilmiy yutuqlari, harbiy ishda kiritilgan o'zgarishlar, madaniyatning rivojlanishi, diniy va ma'naviy hayotning o'zgarishlarini inobatga olish) va boshqalar. [3]

Amir Temur strategik tafakkuri mohiyatini anglash va uning jahon harbiy san'ati rivojiga qo'shgan hissasini to'liq baholash uchun sarkarda yurishlarining faqatgina tarixiy-geografik jihatlarini ko'rsatib o'tishning o'zi kifoya emas. Bunday yondashuv, tarixiy dalillar bayonidan iborat bo'lib, u harbiy san'at tarixini boyitishga xizmat qilmaydi. [4]

Yangi O'zbekistonda dunyoning barcha davlatlari bilan do'stona va o'zaro manfaatlarni inobatga olgan holda hamkorlik qilish uchun zamin yaratilgan bugungi davrda, jahon harbiy san'ati tarixini boyitish yo'lida xalqaro miqyosda ilmiy-ijodiy hamkorlik qilish ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega.

Amir Temurning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi; atoqli sarkarda tarzida yorqin namoyon bo'ladi. Amir Temur o'z harbiy-siyosiy faoliyati orqali, urush olib borish taktikasi, boshqa mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlardagi muammolarni siyosiy yo'l bilan bartaraf etish strategiyasini



amalda yuksak darajaga ko'tardi. Yangi tipdagi muntazam armiyaning tashkil etilishi, siyosiy uyushuv, hayotning barcha jabhalari, ayniqsa, iqtisodiyotning g'alaba qozonish yo'lidagi strategik vazifaga bo'ysundirilishi, temir intizom, har bir jangchi tomonidan harbiy harakatlar olib borish qoidalariga rioya qilinishi, diplomatik vositalardan ustalik bilan foydalanish kabi omillar raqib ustidan ustunlik va g'alabani ta'minlagan. Amir Temur o'zining butun hukmronligi davrida biror marta ham mag'lubiyatga uchramagan.[6,8]

Amir Temur harbiy faoliyatining strukturaviy-funksional tahlili shundan dalolat beradiki, qo'lga kiritgan juda ko'p muvaffaqiyatlar o'zi tomonidan tashkil etilgan harbiy jamoaga bog'liq bo'lgan. Bu haqida manbalarda quyidagi tarzda ko'rsatib o'tilgan: «Amir Temur markazlashgan davlat barpo etib, eng avvalo uning harbiy salohiyatini kuchaytirishga katta e'tibor qaratdi. Shu maqsadda muntazam qo'shin tuzishga, unga yangiliklar kiritishga harakat qildi». Amir Temur bunyod etgan saltanatni boshqarishda stratifikatsion nuqtai nazardan yondashgan holda qonun-qoidalarni o'n ikki toifaga bog'lab tuzganligini qayd etadi. Shundan, to'rtinchi toifaga «amirlar, sarhanglar, sipohsolorlar»ni va beshinchi toifaga «sipoh va raiyat»ni kiritib harbiy jamoaning kuch-qudratini munosib qadrlagan.[5]

Kelajakda taniqli davlat arbobi va afsonaviy sarkarda bo'lib shuhrat qozongan Amir Temur o'z armiyasini sharoitga ko'ra turli jismoniy mashqlar o'tkazib chiniqtirib borgan. Natijada, u turli sharoitlarda, issiq-sovuqni pisand qilmay, cho'lu biyobonlarda ham, tog'u-toshloqliklarda ham jang qila oladigan armiya yaratdi.

Amir Temur o'z harbiy jamoasini mustahkamlashda kreativ fikrlaydigan va shijoatli harbiy xizmatchilarga alohida munosabatda bo'lganligini qayd etadiki bu xususda «Kimning aqli va shijoatini sinov tarozisida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqqligini ko'rsam, uni tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko'tarar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim» deydi. Masalaga bu kabi yondashuv armiya mustahkamligi uchun xizmat qilishi bilan birga, har bir harbiy xizmatchining mehnatini munosib rag'batlantirishga, shu bilan birga ro'y berishi mumkin bo'lgan xatarli va keskin vaziyatlarda harbiy xizmatchilarda mustaqil qarorlar qabul qilish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun xizmat qilgan. [7,8]

Amir Temur harbiy jamoalarda ijtimoiy-psixologik muhitning sog'lomligiga ham katta e'tibor qaratgan. Natijada harbiy jamoa nafaqat jang taqdirini belgilashda balki



sodir bo'lishi muqarrar bo'lgan xavf va xatarlarni bartaraf etishda ham jonbozlik ko'rsatgan.

Amir Temur harbiy jamoani tashkil etish va boshqarish ishlariga alohida e'tibor qaratib, bunda harbiy xizmatchilarning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, ularning sohaga bo'lgan qiziqish va qobiliyatlarini o'stirish, mehnatini qadrlash, harbiy xizmatchi sifatida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Bu haqida u «Temur tuzuklari»da shunday bayon etgan: «Har toifa va har sinfdan kimki o'z ixtiyori bilan sipohiylik xizmatiga kirishni istasa, uni harbiy (xizmat)ga olsinlar. Asl shijoatli sipohiyzoda qaysi toifadan bo'lmasin, unga o'rin berib, xizmatiga va ishiga yarasha tarbiya qilsinlar» - deya ko'rsatib o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va uning harbiy jamoasi o'rganish amaliy ahamiyat kasb etish bilan birga bo'lajak harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Amir Temurning harbiy strategiyasi, harbiy taktikasini tadqiq etish, harbiy xizmatchilarda jamoaviy uyg'unlik va o'zaro hamkorlik munosabatlarini takomillashtirishda qo'l keladi.

Amir Temur harbiy faoliyati va u tomonidan asos solingan harbiy jamoalarning xususiyatlarini tadqiq etish professional armiyani takomillashtirishga doir tushuncha va tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Temur tuzuklari –Toshkent: O'zbekiston, 2016 y.
2. Ivanin, M. Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va A.Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi: -kitob/ Ivanin.M- T.:O'R FA "Fan" nashriyoti, 2018 y.
3. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi:2-kitob/ Ibn Arabshoh.- T.: Mehnat, 1992 y.
4. Rahmonaliyev R. Империя тюрков. Тюркские народы в мировой истории с X в. до н.э. по XX в. н.э. Монография.- М.: Progres. 2002 y.
5. Dadaboev, H.V. A.Temurning harbiy mahorati: kitob/ Dadaboev, H.V. - T.: O'RQKA, 1996 y.
6. Каримов, Д.С. Причины военных походов амира темура. тактика завоевания замков и городов [Электронный ресурс] / D.S Karimov // Best journal of City of Tomorrow mode: <https://miastoprzyszlosci.com.pl/>



index.php/mp/article/view/3420/3180 - Дата обращения 29.05.2024. P.104-109.

7. Makhsudov, O.A. About Amir Temur's ability to manage the army [Electronic resource] / O.A. Makhsudov // Best journal of innovation in science, research and development. Access mode: <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/2048/1883>. - Reference date 29.05.2024. P.404-409.
8. Холдаров, А. Й. Оружие и экипировка воинов армии Амира Темура [Электронный ресурс] / А. Ю. Холдаров // Best journal of City of Tomorrow mode:<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/3420/3180>-Дата обращения 29.05.2024. P. 97-103.

